

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIY-IJTIMOY RIVOJLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Siddikov Nizomiddin G'ulomovich**

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti  
“Buxgalteriya hisobi va soliq” kafedrası dotsenti v.v.b.

### Annotatsiya

Tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini ochib beruvchi asosiy omillar o'rganilgan. Tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati qisman yoritildi. Shu bilan birga, maqolada tadbirkorlik subyektlarining toifalarga bo'linish mezonlariga ham alohida e'tibor qaratilib, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, kichik va o'rta biznes (KO'B), innovatsion tadbirkorlik, davlat qo'llab-quvvatlashi, investitsiya muhiti, tadbirkorlik ekotizimi, institutsional rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.

### Аннотация

Изучены основные факторы, раскрывающие роль и значение субъектов предпринимательства в экономическом и социальном развитии страны. Частично были охвачены доля субъектов предпринимательства в валовом внутреннем продукте страны, а также их социально-экономическое значение в обществе. При этом особое внимание в статье уделено критериям классификации субъектов предпринимательства и выдвинуты предложения по использованию опыта зарубежных стран.

**Ключевые слова:** субъекты предпринимательства, экономическое развитие, социальная стабильность, малый и средний бизнес (МСП), инновационное предпринимательство, государственная поддержка, инвестиционный климат, предпринимательская экосистема, институциональное развитие, экономические реформы.

### Abstract

The main factors that reveal the role and significance of business entities in the country's economic and social development are studied. The share of business entities in the country's gross domestic product, their social and economic significance in society are partially covered. At the same time, the article also pays special attention to the criteria for dividing business entities into categories and puts forward proposals for using the experience of foreign countries.

**Keywords:** business entities, economic development, social stability, small and medium-sized businesses (SMEs), innovative entrepreneurship, state support,

investment environment, entrepreneurial ecosystem, institutional development, economic reforms.

## KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik asosiy drayver sifatida iqtisodiy o‘shish va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Mamlakatda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, Yangi O‘zbekiston strategiyasida ham bu borada muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari O‘zbekiston YAIMining asosiy qismini tashkil etib, xususiy sektor ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotni jadallashtirishda, ayniqsa, startaplar, innovatsion kompaniyalar va IT-bizneslar mamlakatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishda asosiy kuchga aylanmoqda. Shu bois, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berish talab etiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday mamlakat uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarini o‘z ichiga qamrab olgani holda, xuddi ijtimoiy kategoriya kabi davlat va fuqarolarning aniq tarixiy iqtisodiy sharoitlarini namoyon etadi.

Tadbirkorlik har qanday jamiyat iqtisodiy o‘shishining tayanch nuqtalaridan biri sifatida talqin qilinar ekan, tarixda iqtisodchi olimlar tadbirkorlik faoliyatiga turli xil qarashlar va yondashuvlarni taklif etgan. Masalan, Rim huquqshunosligida “tadbirkorlik” — biror bir ish, yumush bilan shug‘ullanuvchi, ayniqsa tijoratchi sifatidagi tadbirkorlik faoliyati tushunilgan. Tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatining terminologik hamda mazmun-mohiyatining evolyutsiyasi tovar va xizmatlar almashinuvi, ishlab chiqarish va taqsimotning shakllanish tarixi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot darajasi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

Rus tilining izohli lug‘ati muallifi Vladimir Ivanovich Dal tadbirkorlikka qisqa va sodda tushuncha bergan holda, \*\*\*“tadbirkor”\*\*\*ni “biror bir yangi ishni boshlashga, qandaydir muhim ishni amalga oshirishga qaror qila oluvchi”, demak “tadbirkor” — nimanidir o‘z zimmasiga oluvchi shaxs”[2] deb ta’riflaydi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda, aksariyat hollarda bu holatning tub mohiyati butun tadbirkorlik faoliyatining maqsadi bilan almashtiriladi. Masalan, A.N. Azriliyan tahriri ostida chop etilgan \*\*\*“Katta iqtisodiy lug‘at”\*\*\*da quyidagicha ta’rif berilgan:

“Tadbirkor — bu fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga qaratilgan, o‘z nomidan o‘z mulkiy javobgarligi yoki yuridik shaxs nomidan va qonuniy javobgarlik ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor mustaqil faoliyatidir”[3].

Bilamizki, tarixda tadbirkorlik faoliyatidagi o‘zgarishlar, jumladan: tadbirkorlik rivojlanishining evolyutsion taraqqiyoti, uning funksiyalari, tashkiliy shakllari, qo‘llash sohalari va ko‘lami bozor iqtisodiyotining rivojlanishida katalizator rolini bajargan.

Tadbirkorlik faoliyati o'rta asr davrlarida muhim voqelik hisoblangan. O'rta asrlarda odatda saroy, jamoatchilik inshootlari, ibodatxona yoki cherkovlar qurish bilan shug'ullangan fuqarolar tadbirkorlar deb hisoblangan. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, ruhoniylar tadbirkorlar sifatida e'tirof etilgan.

O'rta asrlarda tadbirkorlik faoliyatining xarakterli tomoni shundaki, moliyaviy tahlikalar deyarli bo'lmagan. XVIII asrga kelib, tadbirkorlik faoliyatining funksional mohiyati biroz kengaydi. Bu davrga kelib, g'arbiy iqtisodchi olimlar o'rtasida ham "tadbirkor" degan tushuncha keng qo'llanila boshladi.

Tadbirkorlik faoliyati taniqli iqtisodchi olimlar Richard Kantilyon, Fransua Kene, Adam Smit, Jan Batist Sey, Tyurgo Ann Robber Jak va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Richard Kantilyon.

Richard Kantilyon qarashlariga hamohang tarzda XX asr boshlarida G'arbda Y.A. Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi to'g'risidagi qarashlari keng tarqala boshladi. Yozef Aloiz Shumpeter fikricha, "tadbirkorning vazifasi yangidan yaratilgan (izlab topilgan) xomashyodan unumli foydalanish hisobiga yangi usullar bilan zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish, zamon talablariga javob bermaydigan ishlab turgan korxonalarni qayta qurish yoki sanoatning yangi tarmoqlarini yaratish bo'yicha ilg'or g'oyalar asosida tubdan o'zgartirishi asnosida ishlab chiqarishni isloh qilishga erishishdir"[5].

Y. Shumpeter tasavvurida tadbirkor doimo yangilik yaratib, taklif beruvchi inson sifatida gavdalanadi. U tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarish jarayonlarining tez o'zgaruvchanligini ta'minlovchi (ixtirolarni joriy qilish, texnologiyalarni almashtirish, yangi usullarni qo'llash) jihat sifatida ko'radi. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyati yangi texnologiya bilan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish cheklangan bo'lishiga qaramasdan, u ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy yangilik kiritishi mumkin. Shu bilan birga, u tadbirkorlik faoliyati bilan faol shug'ullanuvchilarni, ya'ni eski ish o'rinlari o'rnida yangilarini yaratishga hissa qo'shuvchilarni faol tadbirkorlar sifatida e'tirof etadi. Tadbirkorlik faoliyatining asoslarini u iqtisodiyotning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonida ko'radi. Aynan shu davrda, iqtisodiyot rivojlanayotgan paytda, tadbirkor o'z faoliyatini aniq belgilab olish murakkab jarayon hisoblanadi.

Shuningdek, "Ekonomiks" darsligining muallifi tadbirkorlikni alohida inson resursi sifatida ko'rib, "tadbirkor — xizmat ko'rsatish yoki yagona mahsulot yaratish uchun mehnat, kapital va yer resurslarini birlashtirish tashabbusini o'z zimmasiga oluvchi, o'z biznesini yuritish uchun muhim qaror qabul qila oladigan insondir" deb yozadi. U davom etadi: "Tadbirkor — bu novator, tijoriy asosda yangi mahsulot ishlab chiqarishga intiluvchi, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanish yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalana oluvchi, har qanday tahlikaga bora oladigan insondir".

Rossiya adabiyotlarida esa, tadbirkorlik faoliyati to'g'risida yagona tushuncha mavjud emas. Masalan, A.V. Busigin "Tadbirkorlik — foyda yoki daromad olishga qaratilgan alohida iqtisodiy faollik bo'lib, bozorda ma'lum bir turdagi mahsulotga

bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish natijasida foyda olishga qaratilgan maqsaddir"[6] deb qaraydi. Shunday qilib, A.V. Busigin fikriga ko'ra, tadbirkorlik foyda olishga yo'naltirilgan maqsadli iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Sh.D. Saitbayevning yozishicha: "Tadbirkor — shaxsiy manfaat maqsadida korxona tashkil qiladi va boshqaradi. Ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, xomashyo va materiallar, shuningdek, yollangan ishchi kuchi, yer va jalb qilingan kapital uchun joriy narx-navo bo'yicha haq to'laydi. U ish uchun o'zining g'oyalari, bilimi va malakalarini joriy qiladi va kutilmagan noqulay holat tufayli, hatto bu yo'qotish unga aloqador bo'lmagan taqdirda ham, mumkin bo'lgan yo'qotish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu sababli, tadbirkorning shaxsiy daromadi ishlab chiqarish faoliyati natijasiga ko'ra, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari, realizatsiya qilingan mahsulot va ko'rsatilgan xizmat qiymati o'rtasidagi farq bo'yicha hisoblanadi"[7].

Bundan tashqari, u alohida novatorlik xususiyatiga ega bo'lgan, bozor talablariga mos xizmat ko'rsatuvchi yoki mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarish omillaridan kelib chiqib yangi kombinatsiyalarni amalga oshira oladigan kishilarni haqiqiy tadbirkor deb hisoblagan.

Bizning fikrimizcha, mazkur iqtisodiy kategoriya barcha xo'jalik yurituvchi korxonalar misolida ko'rib chiqilsa, olimning tadbirkorlik to'g'risidagi fikr-mulohazalarini haqiqatga yaqin deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, Sh.D. Saitbayev tadbirkorlik faoliyatini qat'iy ravishda faqat yakka tartibdagi (fuqarolar) shaxslar bilan, ya'ni jismoniy shaxslar bilan bog'laydi. U tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs ko'rinishida amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan korxonalarni nazarda tutmaydi.

Shuningdek, Sh.D. Saitbayev tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga boshqa olimlarga nisbatan keng va o'rinli tushuncha berilishiga qaramay, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan subyektlarning huquqiy maqomi yoritilmagan. Shu bilan birga, nafaqat Sh.D. Saitbayev, balki ushbu mavzu bo'yicha maqolalarda ham olimlar tomonidan keltirilgan iqtiboslarda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy maqomi hamda tadbirkorlik mezonlari deyarli o'rganilmagan.

## **METODOLOGIYA**

Maqolada tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlashda iqtisodiy tahlil, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv, komparativ tahlil, institutsional va normativ-huquqiy yondashuvlar hamda tizimli yondashuvlar qo'llanilgan. Ushbu yondashuvlar tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishini keng qamrovli tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini bergan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilar ekan, olimlar ularga xos bo'lgan jihatlar haqida to'xtalib, tashabbuskorlik, tavakkalchilik, novatorlik, har qanday ishga mas'uliyat bilan yondashuv, mehnat

faoliyati natijalariga moddiy va ma'naviy manfaatdorlik hissi kabi omillarning mujassamligini ta'kidlaganlar.

Demak, tadbirkor va tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi izohlar hamda fikrlarning aksariyat qismi bir xil mohiyatga ega bo'lib, bozordagi ayrim turdagi tovarlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasini tashkil etish hamda oxir-oqibatda foyda olishga yo'naltirilgan soha sifatida qaralgan.

Tadbirkorlik jamiyat ehtiyojini qondirish maqsadida talab va taklifdan kelib chiqqan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan qonuniy tarzda o'rnatilgan va ro'yxatga olingan mulkchilikning barcha shakllaridan qat'i nazar, tashabbuskorlik bilan ma'naviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishi (ish, xizmat) ishlab chiqarish, mahsulot realizatsiyasi va mulkdan foydalanish hisobiga foyda (daromad) olishi yoki aksincha, zarar ko'rishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida ta'riflanadi.

Tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat rivojining quyidagi jihatlariga hissa qo'shuvchi muhim omil hisoblanadi:

Birinchidan, ishsizlik darajasini qisqartirish va mamlakatning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish;

Ikkinchidan, yollanma ishchilarning daromad manbai sifatida ularning yashash darajasini ko'tarish imkonini yaratish;

Uchinchidan, mamlakatning eng chekka hududlarida xizmatlar ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish orqali infratuzilma rivojlanishiga hissa qo'shish;

To'rtinchidan, bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishida drayver vazifasini bajarish;

Beshinchidan, u yoki bu ko'rinishdagi soliqlarni to'lash orqali byudjet daromadlarining ko'payishiga salmoqli hissa qo'shish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son<sup>1</sup> Farmoniga muvofiq, biznes quyidagi (1-jadval) mezonlar bo'yicha toifalarga bo'linishi belgilab berilgan.

1-jadval

### Biznesning mezonlar bo'yicha toifalarga bo'linishi[1]

| Tadbirkorlik subyektlarining toifalari:    | Tovar aylanmasining chegaralari                             |
|--------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| <b>1. Kichik tadbirkorlik subyektlari:</b> |                                                             |
| Mikro firmalar:                            | 1 kalendar yil davomida 1 mlrd. so'mgacha                   |
| Kichik korxonalar:                         | 1 kalendar yil davomida 1 mlrd.so'mdan 10 mlrd.so'mgacha    |
| <b>2. O'rta tadbirkorlik subyektlari:</b>  | 1 kalendar yil davomida 10 mlrd. so'mdan 100 mlrd so'mgacha |
| <b>3. Yirik tadbirkorlik subyektlari:</b>  | 100 mlrd.so'm va undan yuqori bo'lgan subyektlar.           |

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6379809>



Farmonga muvofiq, biznesni (tadbirkorlikni) mezonlar bo'yicha toifalarga bo'lishda ularning aylanma miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar YATTlar ham, shuningdek, aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq bo'lgan subyektlar ham tadbirkorlik subyekti sifatida qaralishi belgilab berildi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 12-iyuldagi 3172-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlarini belgilash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming baravaridan yuqori, ya'ni 275,6 milliard so'mdan yuqori bo'lgan hamda xodimlar soni o'rtacha yillik 10 nafardan kam bo'lmagan yuridik shaxslar yirik soliq to'lovchilar sifatida e'tirof etilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, aylanmasi 100 milliard so'm va undan yuqori bo'lgan subyektlar yirik soliq to'lovchilar sifatida e'tirof etilishi belgilangan bo'lsa, DSQ qarorida esa aylanmasi 275,6 milliard so'mdan yuqori bo'lgan subyektlar yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilishi belgilangan.

Qiziq holat shundaki, soliq to'lovchining aylanma miqdori bo'yicha toifasini aniqlashda ikki xil yondashuv mavjud: biri Prezident farmoni, ikkinchisi esa qo'mita qarori. Shu o'rinda o'rinli savol tug'iladi: soliq to'lovchi o'zini qaysi hujjat asosida toifalashi kerak?


Ma'lumki, yirik soliq to'lovchilar bilan ishlash uchun soliq organida maxsus inspeksiya tashkil etilgan. Bugungi kunda maxsus inspeksiya uchun farmon asosida ishlash qulayroq. Bunday holatlar kelajakda yana davom etishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, farmonga tayanib barcha yuridik maqomga ega bo'lgan subyektlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tadbirkorlik subyektlari sifatida yagona toifaga kiritilishi lozim. Ikkinchidan, bir-biriga zid va bir-birini takrorlovchi qonun va qonun osti hujjatlarining tez-tez uchrab turishiga barham berish, ularni taftish qilish va bir xillashtirish bo'yicha aniq ishlar amalga oshirilishi zarur, deb o'ylaymiz.

So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda huquqlarini himoya qilish sohasida 3 mingdan ortiq huquqiy hujjatlar, 150 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlar hamda hukumat qarorlari natijasida tadbirkorlik subyektlari faolligi ortdi.

1-rasmda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 82 642 taga, 2021-yilga nisbatan esa 38 564 taga qisqarganligi kuzatilgan. Bu holat, albatta, har bir yurtini sevuvchi va fidokor insonni o'ylantirishi tabiiy.

Bitta tadbirkorlik subyekti tugatilishi ortidan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ortib borishi mumkin.



**1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari qoning o'sishi<sup>1</sup>**

Demak, qaysidir mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining tugatilishi yoki boshqa davlatga chiqib ketishi holatlari kuzatilgan bo'lsa, albatta uning sabablari o'rganilib, tahlil qilinishi zarur.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatiga oid qator qonunlar, jumladan:

- "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida",
- "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida",
- "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-tamoyillari to'g'risida",
- "Raqobat to'g'risida" va boshqa qonunlar qabul qilingan bo'lsa-da, haligacha kichik biznes subyektlariga resurslarni mutanosib taqsimlash bo'yicha muammolar saqlanib qolmoqda.

Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani, bu borada federal va mahalliy hokimiyatlar tomonidan kichik biznes korxonalariga katta ahamiyat qaratilayotganligini kuzatish mumkin.

Kichik biznes YEI ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi. Yevropa Ittifoqida 23 milliondan ortiq kichik va o'rta biznes korxonalari mavjud bo'lib, ular umumiy ayirboshlash va qo'shimcha qiymatning yarmidan ortig'ini ta'minlaydi.

Yevropa kichik biznesida bandlar soni qariyb 70% ni tashkil etadi.

- Umumiy ayirboshlashning 57% ini,
- Qo'shimcha qiymatning 53% ini beradi.

Germaniya – YEIning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, tadbirkorlik subyektlarining toifalar bo'yicha mezonlarga bo'linishini ushbu mamlakat misolida ko'radigan bo'lsak, u yerda ish bilan band bo'lganlar soni 499 nafargacha bo'lgan yirik "o'rta" korxonalar alohida (muhim) rol o'ynaydi.

Ayrim tarmoqlarda (masalan, mashinasozlikda) aynan ushbu o'rta korxonalar tarmoqning asosiy drayveri sifatida belgilangan bo'lib, ilmiy tadqiqotlarni eksport qilish va moliyalashtirishga asosiy hissa qo'shadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

Biroq, tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash yuqori darajada bo'lishiga qaramay, 50 kishidan kam bo'lgan kichik korxonalarining ilmiy-tadqiqot va eksport xarajatlaridagi ulushi pasayib borayotgan holatlar kuzatilmoqda.

Germaniyada kichik va o'rta biznes sohasida band bo'lganlar soni YEI bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past:

- Germaniya – 2 962 ming aholiga 100 korxona,
- Yevropa Ittifoqi – 4 778 korxona.

Germaniyada kichik va o'rta korxonalarining qariyb yarmi Shimoliy Reyn – Vestfaliya, Bavariya va Baden-Yurtemberg yerlariga to'plangan.

Tarmoqlar bo'yicha taqsimot:

- Sanoat ishlab chiqarish – korxonalar umumiy sonining 21,5%, band bo'lganlarning 33%;
- Savdo – 25,1%, band bo'lganlarning 23,7%;
- Xizmat ko'rsatish – 53,4%, band bo'lganlarning 43,4%.

Kichik va o'rta korxonalar quyidagi sohalarda faoliyat yuritadi:

- oziq-ovqat do'konlari,
- ta'mirlash va hunarmandchilik ustaxonalari,
- kir yuvish va kiyim tikish atelyesi,
- sartaroshxona,
- kichik qurilish va transport firmalari,
- fermer xo'jaliklari,
- yirik avtomobil va elektronika konsernlariga uzellar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarish.

Germaniyada tadbirkorlik subyektlari quyidagi mezonlar bo'yicha toifalarga bo'linadi.

2-jadval

**Germaniyada tadbirkorlik subyektlarining mezonlar bo'yicha toifalarga bo'linishi<sup>1</sup>**

| Korxonal ar turi: | Band bo'lganlar soni | Aylanma (mln. yevro) | Korxonalar soni |
|-------------------|----------------------|----------------------|-----------------|
| Mikro:            | 10 kishidan kam      | 2 mln.yevro gacha    | 2126937         |
| Kichik:           | 50 kishidan kam      | 10 mln. yevrogacha   | 392298          |
| O'rta:            | 249 kishidan kam     | 50 mln. yevrogacha   | 65921           |
| Yirik:            | 249 kishidan ko'p    | 50 mln.dan ortiq.    | 15769           |

Germaniyada tadbirkorlik subyektlarining mezonlar bo'yicha toifalarga bo'linishi nafaqat aylanma miqdori, balki ishchilar soni bilan ham belgilanadi. Birgina mikro firmalarning o'zida bandlik darajasi o'rtacha 10–15 million kishini tashkil etmoqda.

<sup>1</sup> Statistisches Bundesamt [Elektronnyy resurs]. URL: <https://www-genesis>.



Germaniyada YATT o'zini o'zi band qilish toifasiga kiritilgan. Shuningdek, Germaniyada tadbirkorlik, xususan kichik biznes yaxshi tashkil etilgan.

Tadbirkorlik birlashmalari soni va ularning Yevropadagi faoliyatini muvofiqlashtirish darajasi bo'yicha Germaniya so'zsiz yetakchi hisoblanadi.

Bu, asosan, 1870-yillargacha Germaniya yerlarining parchalanishi sharoitida o'zini o'zi boshqarishning tarixiy an'analari bilan izohlanadi.

Germaniyada tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishining muhim omillaridan yana biri – tadbirkorlik uyushmalarining ahamiyati. Germaniyani munosib ravishda “ittifoqlar mamlakati” deb atashadi.

Tadbirkorlarning ko'plab tarmoq uyushmalari, jumladan:

- ulgurji va chakana savdo korxonalari;
- eksport va import qiluvchilar;
- ko'chmas mulk egalari birlashmalari;
- hunarmandchilik palatalari;
- erkin kasb egalari uyushmalari.

biznes manfaatlarini ifodalovchi va boshqa ko'plab tuzilmalar davlat muassasalari bilan hamkorlik qiladi hamda hokimiyat organlarining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkiloti sifatida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tashkil etilgan.

Ushbu palataning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlikni, eng avvalo kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;
- tadbirkorlarga chet ellik sheriklar bilan amaliy muloqot va aloqalarni kengaytirishda yordam berish hamda eksport mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishda ko'maklashish;
- tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish, shu jumladan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan munosabatlarda, shuningdek sud jarayonlarida himoya qilish.

Bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'z ifodasini topgan.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xalqaro raqobatning keskinlashuvi, Xitoy timsolida yangi o'yinchilarning sahnaga chiqishi, tobora kuchayib borayotgan proteksionizm nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki Rossiya va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlarini belgilashda davlat tomonidan iqtisodiy mexanizmlar orqali tartibga solish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va ularni rag'batlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Hududlararo mahalliy dasturlarni ishlab chiqish, bu iqtisodiy barqaror o'sishning uzoq muddatli sur'atlarini va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi;

- Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish;

- Ishlab chiqarishda yangi nou-xau usullaridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va boshqa mexanizmlarni joriy etish.

Soha vakillari va mutaxassislarning ta'kidlashicha, kichik biznes sohasidagi iqtisodiy xavf hali ham yuqori darajada baholanmoqda. Shu bois, kichik korxonalarning "hayot aylanishi" – ya'ni faoliyat davri, odatda, yirik kompaniyalarga qaraganda ancha qisqa.

Shuning uchun Yevropa, Yaponiya, AQSH va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tadbirkorlik subyektlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari bilan ta'minlangan.

Mavzuga yakun yasagan holda, tadbirkorlik subyektlarini kelajakda yanada rivojlantirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi mavqeini oshirish, har bir yurtning madadkori bo'lgan tadbirkorlar uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- tadbirkorlik subyektlari erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonunning rolini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlariga barham berish;

- savdo-sanoat palatasi faoliyatini muvofiqlashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, daxlsizligini ta'minlash;

- Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan foydalanishini kengaytirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga davlat buyurtmalarini berish bo'yicha mexanizmlarini tatbiq etish;

- tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun energiya resurslari bilan ta'minlashning optimal variantlarini ishlab chiqish;

- tadbirkorlik subyektlariga nou-xau hamda ilmiy tadqiqot-konstruktorlik ishlari uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan kredit berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish.

Tadbirkorlik subyektlari sohasida yillar davomida sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, soha rivojida ishga solinmagan katta salohiyat mavjud.

Ushbu salohiyatni faollashtirish uchun mamlakatda tadbirkorlikning innovatsion shakllarini har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash birlamchi vazifalar sirasiga kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. В.И. Даль. Толковый словарь живого великорусского языка. 1863–1866 (1-е издание).

2. А.Н. Азрилиян. Большой экономический словарь. Москва: Ин-т новой экономики, 2002.
3. А.И. Агеев. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. Москва, 1991. – С. 5.
4. Й.А. Шумпетер. Теория экономического развития. Москва: Прогресс, 1985. – С. 159.
5. Р. Кэмпбелл, Л. Макконнелл, Л. Стэнли. Экономикс. Москва: Республика, 1992. – С. 37.
6. А. Бусыгин. Предпринимательство: начальный курс. Москва: НИРП, 1992. – С. 7.
7. Ш.Д. Сайитбаев. Источники формирования предпринимательского капитала в аграрной сфере. Санкт-Петербург, 1994.